



ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 4-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN

3093-9089

Бухоро - 2026



ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

№ 4-Son 2026-yil

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

BOSH MUHARRIR:

Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li

Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorvich - Texnika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro
davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi mudiri).

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

Xamidov Akmal Amrulloevich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo‘yicha
birinchi prorektor).

Safarov Dilmurod Xalimovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
(Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo'yicha direktor
o'rinbosari)

Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi mudiri).

Ganjiyev Feruz Furqatovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi professori).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va
psixologiya, ta‘lim texnologiyalari kafedrasi mudiri)

Ismatova Dilafuz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar
kafedrasi dotsenti).



Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasida dotsenti).

Mas‘ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi

EDITOR-IN-CHIEF:

Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Valeriy Vladimirovich Kuleshov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

Elena Vasilyevna Andrienko — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

Tatyana Aleksandrovna Romm — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich — Doctor of Technical Sciences, Professor.

Shirinboy Sharofovich Olimov — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the “Pedagogy” Department).

Lochin Rustamovich Zaripov — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

Khamidov Akmal Amrulloevich — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Akmal Mardonovich Nazarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

Dilmurod Xalimovich Safarov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

Shavkat Shuhrat o‘g‘li Rustamov — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the “Psychology” Department).

Feruz Furqatovich Ganjiyev — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the “Psychology” Department).

Kosimov Ubaydulla Axrorovich — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

Dilafruz Tuymuratovna Ismatova — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).



Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

EXECUTIVE SECRETARY:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:

Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:

Кулешов Валерий Владимирович — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

Андрienко Елена Васильевна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

Ромм Татьяна Александровна — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович — доктор технических наук, профессор.

Олимов Ширинбой Шарофович — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

Зарипов Лочин Рустамович — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

Хамидов Акмал Амруллоевич — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Назаров Акмал Мардонович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

Сафаров Дилмурод Халимович — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

Рустамов Шавкат Шухрат угли — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

Ганжиев Феруз Фуркатович — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

Косимов Убайдулла Ахрорович — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

Исматова Дилафруз Туймуратовна — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).



Мухлисов Содикжон Саиджонович — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

Тилавов Мухтор Хасан угли — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:

Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

MUNDARIJA:

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
1	<i>G'AYBULLAYEV ALISHER ASADOVICH</i>	MAKTAB UQUVCHILARIDA BULLING XULQ ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI	13
2	<i>YOQUBJONOVA SEVARA BAHODIR QIZI</i>	PRESERVING THE AUTHOR'S INDIVIDUAL STYLE IN UZBEK TRANSLATION (BASED ON LEE KUAN YEW'S FROM THIRD WORLD TO FIRST)	19
3	<i>IBODULLOYEV NURALI SHERALIYEVICH</i>	PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM JARAYONIDA SAMARDORLIGI VA METODOLOGIK ASOSLARI	30
4	<i>AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA, NARZULLOYEVA JASMINA JO'RABEK QIZI</i>	IJTIMOYIY TARMOQLARNING O'SPirinLAR PSIXIKASIGA TA'SIRI VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	33
5	<i>QAZOQOV MUXRIDDIN HOSHIM O'G'LI</i>	ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ	38
6	<i>SAIDOVA RAYHONA AMON QIZI</i>	BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI	41
7	<i>NISHONOVA ZUXRA VOXIDJON QIZI</i>	THE DEVELOPMENT OF THE PHONICS APPROACH AND ITS ROLE IN MODERN EDUCATIONAL PARADIGMS	44
8	<i>SADULLAYEVA SEVARA G'AYRADJONOVNA</i>	TALABALARDA UYQUSIZLIK VA UNING SALOMATLIKKA TA'SIRI	48
9	<i>SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI</i>	BAHOLASH AMALIYOTIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	52
10	<i>MAMATOV ALIMARDON SOTVOLDI O'G'LI, SHOMUROTOV ZOVID ZOKIROVICH</i>	PROFESSIONAL DEFORMATION AND ITS CAUSES	56
11	<i>UBAYDULLA AXROROVICH KOSIMOV</i>	KICHIK MAKTAB YOSHIDA AXBOROT QABUL QILISH MODALLIGINING AHAMIYATI	61

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
12	<i>XAMIDOV AKMAL AMRULLOYEVICh</i>	KASB TANLASHDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘RNI	66
13	<i>JAXONOV JAVLONBEK JAMIL O‘G‘LI</i>	O‘SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	70
14	<i>OSTONOVA LOBAR RASHID QIZI</i>	THE ROLE OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF STUDENTS’ LEISURE TIME	73
15	<i>SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI</i>	MUSTAQIL FAOLIYATNI BAHOLASH TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR	78
16	<i>HAMROYEV JAMSHID O‘G‘LI TEMURBEK</i>	MIGRATSIYA BILAN BOG‘LIQ IJTIMOY SHAROITLARDA O‘SMIRLARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV STRATEGIYALARI.	81
17	<i>OBIDOVA ZILOLA FOZILOVNA</i>	YOSHLAR ORASIDA YUKSAK HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK ASOSLARI	85
18	<i>QOSIMOVA SARVINOZ BAXTIYOROVNA</i>	YOSHLAR ONGIDA MANIPULYATSION TA‘SIRLARGA QARSHI IMMUNITETNI HOSIL QILISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI.	88
19	<i>SHODIYEVA UMEDA SHUHRAT QIZI</i>	BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	94
20	<i>UMARALIYEVA MUNOJATXON MASHRABOVNA, IBRAGIMOVA MUHLISA ISMOILJON QIZI</i>	THE DIFFICULTY OF TRANSLATING HUMOR AND JOKES FROM ENGLISH INTO UZBEK	99
21	<i>DEHQONBOYEV SHOHJAHON OYBEK O‘G‘LI</i>	CRITERIA FOR EVALUATING SOCIAL BEHAVIOR OF AN INDIVIDUAL DURING FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATION AND THEIR PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS	103
22	<i>ABDULLAYEVA BARNO SAYFUTDINOVNA</i>	UYUSHMAGAN YOSHLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MOSLASHUVI VA HAYOTIY STRATEGIYALARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI	109
23	<i>AXATOV YO‘LDOSHJON HAMZAYEVICH</i>	TALABALARDA O‘QUV FAOLIYATINI METAKOGNITIV BOSHQARISH ORQALI QAT‘IYATLILIK VA MAS‘ULIYATLILIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	114

T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
24	<i>ASHRAPOV NODIRBEK NAMOZ O'G'LI</i>	O'SPIRINLARDA METAKOGNITIV QOBILİYATLAR RIVOJIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR	122
25	<i>NAZAROV AKMAL MARDONOVICH</i>	YOSHLAR PSIXOLOGIYASI VA MA'NAVİY TARBIYA: INNOVATSION JAMIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MA'NAVİY SALOHIYATNI YUKSALTIRISH STRATEGIYALARI	129
26	<i>RUSTAMOV SHAVKAT SHUHRAT O'G'LI</i>	TRANSFORMATSION TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING ILMIY-IJODIY SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHGA OID PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR	136
27	<i>ALJANOVA GULJAHAN AMANGELDIYEVNA</i>	MAKTAB O'QUVCHILARIDA GEOGRAFIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	143
28	<i>NURULLOYEV FIRUZ NO'MONJONOVICH</i>	BO'LAJAK INFORMATIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA YO'LLARI	148
29	<i>ZARIPOVA MAFTUNA BAHROM QIZI</i>	CHET EL BOLALAR ADABIYOTI NAMUNALARI ASOSIDA O'QUVCHILARDA UMUMINSONIY IJTIMOYIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI	153
30	<i>TURSUNOVA DILBAR DILBAR ZAFAROVNA</i>	TA'LIM JARAYONIDA GRAFIK ORGANAYZERLARDAN FOYDALANISH ORQALI O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI	157
31	<i>BEGMATOVA MUNIRA MUNIRA TOLIBJON QIZI</i>	SHAXSNING UMUMIY SALOMATLIGINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA TALQIN ETILISHI	160
32	<i>NUSRATOVA MEXRINISO BAXSHILLOYEVNA</i>	PEDAGOG VA TALABA O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNING SHAXSDA ALTRUIZM MOTIVLARINING SHAKLLANISHIGA TA'SIRI	168
33	<i>MAKSADOVA MEHRINISO SAYXONOVNA</i>	PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING PROFESSIONAL QUALITIES AND ATTRIBUTES OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS	172
34	<i>GAFAROVA ALFIYA SALAVATOVNA</i>	ОРГАНИЗАЦИЯ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ УСТАНОВОК У ДОШКОЛЬНИКОВ	180
35	<i>FAYZULLOYEVA NAZOKAT SHODMONOVNA</i>	BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA VA EMPATIYA RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI	184



T/R	Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Bet
36	<i>SAIDNAZAROVA GULSHAN BOLTA QIZI</i>	IMOM AL-BUXORIY HADISLARINI PEDAGOGIK JARAYONDA QO‘LLASHNING DIDAKTIK ASOSLARI	190

Saidnazarova Gulshan Bolta qizi

Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

IMOM AL-BUXORIY HADISLARINI PEDAGOGIK JARAYONDA QO‘LLASHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Imom al-Buxoriy ilmiy merosi zamonaviy pedagogikaning insonparvarlik, tizimlilik va izchillik, uzluksizlik, mustaqillik va faollik, ko‘rgazmalilik hamda nazariya va amaliyot birligi tamoyillari asosida tahlil qilinadi. Allomaning Al-Jome‘ as-Sahih asaridagi metodologik yondashuv didaktik model sifatida asoslanadi. Tadqiqot natijalari Imom al-Buxoriy qarashlari zamonaviy ta‘lim tizimida ma‘naviy yetuk, mustaqil fikrlovchi va faol shaxsni shakllantirishda muhim metodologik tayanch bo‘la olishini ko‘rsatadi.*

Tayanch tushunchalar: *Insonparvarlik, tizimlilik, izchillik, uzluksizlik, mustaqillik, faollik, ko‘rgazmalilik, nazariya va amaliyot birligi, hadis, pedagogik metodologiya.*

Саидназарова Гульшан Болта кизи

Преподаватель кафедры педагогики Бухарского государственного университета

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРИМЕНЕНИЯ ХАДИСОВ ИМАМА АЛЬ-БУХАРИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: *В данной статье научное наследие Имама аль-Бухари рассматривается на основе принципов современной педагогики: гуманизма, системности и последовательности, непрерывности, самостоятельности и активности, наглядности, а также единства теории и практики. Методологический подход, представленный в труде “Аль-Джами’ ас-Сахих”, обосновывается как дидактическая модель. Результаты исследования показывают, что взгляды Имама аль-Бухари могут служить важной методологической основой в формировании духовно зрелой, самостоятельно мыслящей и активной личности в современной системе образования.*

Ключевые слова: *Гуманизм, системность, последовательность, непрерывность, самостоятельность, активность, наглядность, единство теории и практики, хадис, педагогическая методология.*

Saidnazarova Gulshan Bolta kizi

Lecturer at the Department of Pedagogy, Bukhara State University

DIDACTIC FOUNDATIONS OF APPLYING THE HADITHS OF IMAM AL-BUKHARI IN THE PEDAGOGICAL PROCESS

Abstract: *This article analyzes the scientific heritage of Imam al-Bukhari based on the principles of modern pedagogy: humanism, systematicity and consistency, continuity, independence and activity, visualization, and the unity of theory and practice. The methodological approach presented in his work “Al-Jami‘ as-Sahih” is substantiated as a didactic model. The research findings indicate that Imam al-Bukhari’s views can serve as an important methodological foundation for shaping spiritually mature, independent-thinking, and active individuals within the modern education system.*

Keywords: *Humanism, systematicity, consistency, continuity, independence, activity, visualization, unity of theory and practice, hadith, pedagogical methodology*

Kirish: *Didaktik tamoyillar pedagogik jarayonning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Ular ta‘lim mazmunini tanlash, o‘qitish shakl va metodlarini belgilash, nazorat va baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda kutilayotgan natijalarni aniqlash jarayonini ilmiy asosda*

yo‘naltiradi. Har bir didaktik tamoyil ta‘limning muayyan qonuniyatiga tayangan holda o‘quv jarayonining ichki mantiqini belgilaydi va uning samaradorligini ta‘minlaydi. Shu bois didaktik tamoyillar pedagogik faoliyatning yo‘nalishini belgilovchi strategik mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy ta‘lim tizimi shaxsga yo‘naltirilganlik, kompetensiyaviy yondashuv, uzluksiz rivojlanish va innovatsion metodlardan foydalanishni talab etadi. Ta‘lim jarayoni endilikda faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki o‘quvchining mustaqil fikrlashi, muammolarni hal etish qobiliyati, ijtimoiy mas‘uliyati va ma‘naviy qadriyatlarini shakllantirishni ham o‘z ichiga oladi. Bunday model tizimli, izchil va ilmiy asoslangan didaktik yondashuvni talab qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Imom al-Buxoriy merosi nafaqat diniy-ilmiy boylik, balki chuqur pedagogik qarashlar tizimi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy faoliyati - hadislarni yig‘ish, tekshirish va saralash jarayoni - qat‘iy metodologik asosga tayangan. Alloma har bir rivoyatni isnod (rivoyatchilar zanjiri) va matn jihatidan puxta tahlil qilgan, manbaning ishonchligini aniqlashda qat‘iy mezonlarga amal qilgan. Bu jarayon ilmiy aniqlik, dalillilik va tanqidiy tafakkurning yorqin namunasidir.

Imom al-Buxoriyning hadislarni mavzular bo‘yicha tasniflash va ularni kitob hamda boblarga ajratishdagi yondashuvi tizimlilik va izchillik tamoyillarining amaliy ifodasi hisoblanadi. Ayniqsa, uning mashhur asari Al-Jome‘ as-Sahih mantiqiy tuzilishi, mavzularning o‘zaro bog‘liqligi va ichki kompozitsiyasi bilan didaktik model sifatida baholanishi mumkin. Har bir bob sarlavhasi muayyan g‘oyani ilgari suradi, hadislar esa ushbu g‘oyani dalillar asosida mustahkamlaydi. Bu uslub o‘quv materialini modullashtirish va strukturaviy rejalashtirish tamoyillariga to‘la mos keladi.

Bundan tashqari, allomaning ustoz-shogird munosabatlariga doir qarashlari pedagogik etikaga oid muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Ilmga hurmat, kamtarlik, sabr-toqat, mas‘uliyat va halollik kabi qadriyatlar uning ilmiy faoliyatida amaliy namoyon bo‘lgan. Bu tamoyillar bugungi ta‘lim jarayonida akademik madaniyat va kasbiy mas‘uliyatni shakllantirish uchun mustahkam axloqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Imom al-Buxoriyning hayoti va ilmiy izlanishlari uzluksiz ta‘lim g‘oyasini tasdiqlaydi. Alloma ilm izlab uzoq safarlarga chiqqan, turli ulamolar bilan muloqot qilgan va doimiy ravishda o‘z bilimini boyitib borgan. Bu jihat zamonaviy “hayot davomida ta‘lim” konsepsiyasi bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Demak, Imom al-Buxoriy merosi didaktik tamoyillarni nazariy jihatdan tushuntirish bilan cheklanmay, ularning amaliy namunasini ham beradi. Uning ilmiy-metodik yondashuvi zamonaviy pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta‘lim sifatini oshirish va shaxsni har tomonlama rivojlantirishda muhim metodologik manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Quyida mazkur tamoyillar pedagogik jihatdan yanada chuqur tahlil qilinadi va ularning Imom al-Buxoriy qarashlari bilan o‘zaro bog‘liqligi asoslab beriladi.

Insonparvarlik tamoyili: Insonparvarlik tamoyili pedagogikaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, ta‘lim jarayonida shaxsning qadr-qimmatini, huquqi, sha‘ni va individual xususiyatlarini e‘tirof etishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, o‘quvchi ta‘lim jarayonining passiv obyekt emas, balki faol subyekt sifatida qaraladi. Pedagog esa yo‘naltiruvchi va hamkor rolini bajarib, o‘quvchining ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning intellektual va ma‘naviy salohiyatini rivojlantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Insonparvarlik yondashuvi ta‘limda mehr-muhabbat, hurmat, adolat va bag‘rikenglik muhitini shakllantirishni talab etadi. Bu tamoyil o‘quvchining erkin fikrlashi, o‘z nuqtai nazarini bildirish huquqi va shaxsiy rivojlanish sur‘atini inobatga olishni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim modeli aynan mana shu g‘oyaga asoslanadi ya‘ni har bir shaxs o‘ziga xos va betakror ekanligini tan olish.

Imom al-Buxoriy hadislarida inson sha‘ni, adolat, rahm-shafqat va bag‘rikenglik g‘oyalari markaziy o‘rin egallaydi. Alloma ilmni inson kamoloti va ma‘naviy poklanish vositasi sifatida talqin etgan. Uning rivoyatlarni saralashdagi adolat mezoni, yolg‘on va nohaqlikka qat‘iy munosabati inson qadrini himoya qilish tamoyiliga asoslangan.

Imom al-Buxoriyning ustoz-shogird munosabatlariga doir qarashlarida hurmat, kamtarlik va o‘zaro ishonch ustuvor bo‘lgan. U ilm olish jarayonini axloqiy poklik va ma’naviy yetuklik bilan chambarchas bog‘lagan. Shogird ustozni hurmat qilishi, ustoz esa shogirdning qobiliyatini qo‘llab-quvvatlashi zarurligi uning pedagogik ruhiyatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Bu yondashuv zamonaviy insonparvar pedagogika bilan to‘liq uyg‘unlashadi. Zero, haqiqiy ta’lim faqat bilim berish emas, balki shaxsni qadrlash, uning ichki dunyosini boyitish va jamiyatda munosib o‘rin egallashiga ko‘maklashish jarayonidir. Imom al-Buxoriy merosi aynan mana shu insonparvarlik g‘oyalarini mustahkamlaydi va pedagogik jarayonni ma’naviy-axloqiy asosda tashkil etish uchun muhim nazariy hamda amaliy tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Tizimlilik va izchillik tamoyili: Tizimlilik tamoyili ta’lim jarayonida bilimlarni mantiqiy, o‘zaro bog‘langan va yaxlit tuzilma asosida berishni nazarda tutadi. Har qanday o‘quv materiali tasodifiy emas, balki ichki qonuniyat va ketma-ketlikka ega bo‘lishi zarur. Tizimli yondashuv o‘quvchida predmet yoki hodisa haqida kompleks tasavvur shakllantiradi, bilimlar orasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglashga yordam beradi.

Izchillik tamoyili esa bilimlarni bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga, ma’lumdan noma’lumga tamoyili asosida o‘zlashtirishni talab etadi. Bu jarayonda yangi bilim avvalgi o‘zlashtirilgan tushunchalarga tayangan holda shakllanadi. Natijada o‘quvchi bilimlarni mexanik tarzda emas, balki ongli va mustahkam ravishda egallaydi.

Mazkur tamoyillar o‘quv jarayonida strukturaviy rejalashtirish, modullashtirish va mavzularni ichki mantiq asosida joylashtirishni talab qiladi. Aynan shunday ilmiy-metodik yondashuvni Imom al-Buxoriy faoliyatida kuzatish mumkin.

Alloma hadislarini tasniflashda yuqori darajadagi tizimlilikni namoyon etgan. Uning mashhur asari “Al-Jome’ as-Sahih” kitob va boblarga ajratilgan bo‘lib, har bir bob ma’lum g‘oyani ochib berishga xizmat qiladi. Bob sarlavhalari mavzuning asosiy mazmunini ifodalaydi, hadislar esa ushbu g‘oyani dalillab, mazmuniy jihatdan boyitadi. Bu tuzilma ichki mantiqiy bog‘liqlik va mazmuniy yaxlitlikni ta’minlaydi.

Imom al-Buxoriyning tasniflash usuli pedagogik tizimlilikning amaliy ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin. U hadislarini faqat to‘plab qo‘ymagan, balki ularni ma’lum g‘oyaviy va mantiqiy tartib asosida joylashtirgan. Bu yondashuv zamonaviy ta’limdagi modulli o‘qitish, mavzularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish va o‘quv dasturini strukturaviy tashkil etish tamoyillari bilan to‘liq uyg‘unlashadi.

Shunday qilib, tizimlilik va izchillik tamoyillari Imom al-Buxoriy ilmiy merosida nazariy emas, balki amaliy asosga ega bo‘lgan metodologik model sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv o‘quvchilarda mantiqiy tafakkur, tahliliy fikrlash va bilimlarni yaxlit holda qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uzluksizlik tamoyili: Uzluksizlik tamoyili ta’lim jarayonining doimiy, izchil va bosqichma-bosqich davom etishini anglatadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, shaxs rivoji bir martalik o‘qish bilan emas, balki butun hayot davomida bilim olish, tajriba orttirish va o‘z ustida ishlash orqali ta’minlanadi. Ta’lim jarayoni maktab yoki oliy ta’lim bosqichi bilan cheklanib qolmay, insonning kasbiy, ijtimoiy va ma’naviy kamolotini uzluksiz qo‘llab-quvvatlovchi tizimga aylanishi lozim.

Pedagogik nuqtai nazardan, uzluksizlik bilimlarning bosqichma-bosqich chuqurlashib borishini, avvalgi o‘zlashtirilgan tushunchalarning keyingi bosqichlarda boyitilib, kengaytirilishini taqozo etadi. Bu jarayonda vorisiylik va ketma-ketlik muhim ahamiyat kasb etadi. Uzluksiz ta’lim shaxsning mustaqil o‘qish ko‘nikmasini shakllantiradi, o‘zini rivojlantirish ehtiyojini kuchaytiradi va uni hayotiy vaziyatlarga moslashuvchan qiladi.

Imom al-Buxoriy hayoti va ilmiy faoliyati uzluksizlik tamoyilining yorqin amaliy namunasidir. Alloma yoshligidan boshlab ilm izlash yo‘liga kirgan va umrining oxirigacha bu yo‘ldan chekinmagan. U hadis ilmini chuqur o‘rganish maqsadida ko‘plab mamlakatlarga safar qilgan, turli ulamolar bilan ilmiy muloqot olib borgan hamda minglab rivoyatlarni tekshirgan. Bu jarayon uzluksiz izlanish, doimiy o‘qish va o‘zini takomillashtirishga asoslangan edi.

Imom al-Buxoriy ilmni bir bosqichda egallanadigan hodisa emas, balki doimiy ravishda mukammallashtirib boradigan jarayon sifatida talqin qilgan. U har bir rivoyatni qayta-qayta tekshirib,

mukammal natijaga erishmaguncha izlanishni davom ettirgan. Bu yondashuv zamonaviy “hayot davomida ta’lim” (lifelong learning) konsepsiyasi bilan to’la uyg’unlashadi.

Shunday qilib, uzluksizlik tamoyili Imom al-Buxoriy ilmiy merosida nafaqat nazariy g’oya, balki amaliy hayotiy tamoyil sifatida namoyon bo’ladi. Uning ilmga sadoqati va tinimsiz izlanishlari zamonaviy ta’lim jarayonida o’quvchilarda doimiy o’rganish ehtiyoji, o’z ustida ishlash madaniyati va kasbiy hamda ma’naviy rivojlanishga intilish fazilatlarini shakllantirishda muhim metodologik asos bo’lib xizmat qiladi.

Mustaqillik va faollik tamoyili: Mustaqillik va faollik tamoyili ta’lim jarayonida o’quvchining bilimni tayyor holda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil izlanish, tahlil va amaliy faoliyat orqali egallovchi subyekt sifatida shakllanishini nazarda tutadi. Mazkur tamoyilga ko’ra, haqiqiy bilim o’quvchining ichki intellektual faolligi, savol berishi, muammoga yechim izlashi va xulosa chiqarishi jarayonida yuzaga keladi. Faollik bilimni chuqur o’zlashtirishning asosiy sharti bo’lib, u tafakkur, kuzatuvchanlik va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Pedagogik nuqtai nazardan, mustaqillik o’quvchining o’z fikriga ega bo’lishi, dalillarga tayangan holda qaror qabul qilishi va o’z faoliyatini tahlil qila olishini anglatadi. Faollik esa ta’lim jarayonida ongli ishtirok, savol-javob, muhokama va izlanish orqali namoyon bo’ladi. Bu tamoyil o’qituvchidan yo’naltiruvchi, maslahat beruvchi va sharoit yaratuvchi rolini bajarishni talab qiladi.

Imom al-Buxoriy ilmiy faoliyatida mazkur tamoyilning yorqin ifodasi kuzatiladi. Alloma hadislarni tanlashda mustaqil ilmiy xulosaga kelgan, har bir rivoyatni isnod va matn jihatidan chuqur tekshirgan hamda tanqidiy baholagan. U boshqa olimlarning fikrini hurmat qilgan holda, yakuniy qarorni o’zining ilmiy tahliliga asoslagan. Bu jarayon mustaqil tafakkur, ilmiy jasorat va yuqori darajadagi intellektual faollikning namunasidir.

Imom al-Buxoriyning metodologiyasi o’quvchilarda tanqidiy fikrlash, dalillilik va mustaqil qaror qabul qilish ko’nikmalarini shakllantirish uchun muhim pedagogik model bo’la oladi. Zamonaviy pedagogikada bu yondashuv interfaol metodlar — munozara, keys-stadi, muammoli ta’lim, loyiha ishlari va tadqiqot faoliyati orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, mustaqillik va faollik tamoyili Imom al-Buxoriy ilmiy merosida nazariy tamoyil emas, balki amaliy ilmiy faoliyat mezoni sifatida namoyon bo’ladi. Bu yondashuv zamonaviy ta’lim jarayonida o’quvchilarning mustaqil fikrlovchi, faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Ko’rgazmalilik tamoyili: Ko’rgazmalilik tamoyili ta’lim jarayonida bilimlarni aniq misollar, dalillar, obrazlar va hayotiy voqealar orqali tushuntirishni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga ko’ra, abstrakt tushunchalar konkret tasvir va misollar bilan boyitilganda o’quvchi ularni osonroq anglaydi va mustahkamroq o’zlashtiradi. Ko’rgazmalilik nafaqat vizual vositalar (rasm, jadval, sxema) bilan cheklanadi, balki mazmuniy aniqlik, hayotiylik va dalillilikni ham o’z ichiga oladi.

Pedagogik jihatdan ko’rgazmalilik o’quvchining sezgi organlari orqali idrok etish faoliyatini kuchaytiradi, tasavvurini boyitadi va mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Ayniqsa, axloqiy va ijtimoiy masalalarni tushuntirishda real hayotiy misollar katta ahamiyat kasb etadi. Chunki shaxs konkret vaziyat orqali umumiy xulosaga keladi.

Imom al-Buxoriy merosida ushbu tamoyilning yorqin ifodasi kuzatiladi. Uning mashhur asari “Al-Jome’ as-Sahih” da keltirilgan hadislar mazmunan ixcham, ma’nodoran chuqur va hayotiy voqealarga boydir. Hadislar orqali axloqiy, ijtimoiy va huquqiy masalalar aniq misollar asosida yoritiladi. Masalan, sabr, halollik, adolat yoki mehr-oqibat kabi fazilatlar real voqealar va insoniy munosabatlar orqali tushuntiriladi.

Bunday yondashuv o’quvchiga nazariy tushunchalarni hayot bilan bog’lash imkonini beradi. Hadislar o’z mohiyatiga ko’ra ibratli voqealar va muloqot shaklida bayon qilinganligi sababli, ular o’quv jarayonida ko’rgazmali didaktik material sifatida samarali qo’llanishi mumkin.

Shunday qilib, ko’rgazmalilik tamoyili Imom al-Buxoriy merosida mazmuniy va metodik jihatdan mujassam bo’lib, ta’lim jarayonida abstrakt g’oyalarni aniq hayotiy dalillar orqali tushuntirishda muhim pedagogik manba vazifasini bajaradi.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili: Nazariya va amaliyot birligi tamoyili ta’lim jarayonining eng muhim metodologik asoslaridan biri bo’lib, u nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat

o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta‘minlashni nazarda tutadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra, bilim faqat nazariy tushuncha darajasida qolib ketmasligi, balki real hayotda qo‘llanilishi, amaliy tajriba bilan mustahkamlanishi zarur. Nazariya amaliyot bilan sinovdan o‘tgandagina o‘zining haqiqiy qiymatini namoyon etadi.

Pedagogik jihatdan bu tamoyil o‘quvchilarda o‘zlashtirilgan bilimni hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish, muammolarni hal qilishda qo‘llash va amaliy xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirishni talab qiladi. Ta‘lim jarayonida nazariy ma‘lumotlar misollar, mashqlar, muammoli vaziyatlar va real tajriba bilan boyitilishi zarur. Shunda bilim abstrakt tushuncha emas, balki faoliyat vositasiga aylanadi.

Imom al-Buxoriy ilmiy merosida mazkur tamoyil aniq ifodasini topgan. Uning mashhur asari “Al-Jome’ as-Sahih” va “Al-adab al-mufrad” asarlaridagi hadislarini faqat nazariy-ilmiy manba sifatida emas, balki kundalik hayot uchun amaliy qo‘llanma sifatida talqin qiladi. Asarda axloqiy, ijtimoiy va huquqiy qoidalar real hayotiy vaziyatlar, insonlar o‘rtasidagi munosabatlar va konkret voqealar orqali bayon etiladi.

Imom al-Buxoriy hadislarini tanlash va joylashtirish jarayonida ularning amaliy ahamiyatini ham inobatga olgan. Masalan, savdo-sotiq, adolat, halollik, oila munosabatlari kabi masalalarga oid hadislar insonning kundalik hayotidagi faoliyatini tartibga solishga xizmat qiladi. Bu esa nazariy bilimning amaliy faoliyat bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, nazariya va amaliyot birligi tamoyili Imom al-Buxoriy merosida chuqur mujassam bo‘lib, u ta‘lim jarayonini hayot bilan bog‘lash, bilimni amaliy mazmun bilan boyitish va shaxsni real faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa: Insonparvarlik, tizimlilik va izchillik, uzluksizlik, mustaqillik va faollik, ko‘rgazmalilik hamda nazariya va amaliyot birligi tamoyillari pedagogik jarayonning nazariy va metodologik poydevorini tashkil etadi. Ushbu tamoyillar ta‘lim mazmunini ilmiy asosda tashkil etish, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirish va bilimni hayot bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Ular o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilgandagina ta‘lim jarayoni samarali, tizimli va ma‘naviy jihatdan boy bo‘ladi.

Allomaning hadislarini saralashdagi ilmiy aniqligi tizimlilik va izchillikni, umr bo‘yi ilm izlashga sadoqati uzluksizlikni, mustaqil xulosaga kelish va tanqidiy yondashuvi esa mustaqillik va faollikni ifodalaydi. Hadislarining hayotiy voqealar asosida bayon etilishi ko‘rgazmalilikni, ularning kundalik turmush bilan bog‘liqligi esa nazariya va amaliyot birligini ta‘minlaydi.

Allomaning ilmiy aniqlik, axloqiy yuksaklik va mustaqil tafakkurga asoslangan qarashlari zamonaviy ta‘lim tizimining maqsad va vazifalari bilan uyg‘unlashadi. Uning metodologiyasi nafaqat bilim berish, balki shaxsni intellektual, axloqiy va ijtimoiy jihatdan har tomonlama kamol toptirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik model sifatida baholanishi mumkin. Shu bois Imom al-Buxoriy merosi bugungi ta‘lim jarayonini boyituvchi muhim nazariy va amaliy manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Imom al-Buxoriy. Al-Jome’ as-Sahih. — Bayrot: Dor ibn Kasir, 1987.
2. Komenskiy Ya.A. Buyuk didaktika. — Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
3. Xo‘jayev B. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: O‘zbekiston, 2019.
4. Yo‘ldoshev J.G‘. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan, 2010.
5. Hasanboyev J., Turg‘unboyev X., Haydarov G‘. Pedagogika. — Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
6. Ziyodullayev N. Didaktika. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2008.
7. Delors J. Learning: The Treasure Within. Report to UNESCO. — Paris: UNESCO Publishing, 1996.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
9. Azimov E., Muhammadiyev N. Pedagogik psixologiya. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014.
10. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. — New York: Longman, 1956.
11. Vygotsky L.S. Thought and Language. — Cambridge: MIT Press, 1986.

1. Ахмадов, Н. Р. (2022). Социально-психолого-педагогическая реабилитация дезадаптированных подростков. *Science and Education*, 3(2), 1045-1053.
2. Ахмадов, Н. Р. (2022). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РЕАБИЛИТАЦИИ ДИЗАДАПТИРОВАННЫХ ПОДРОСТКОВ. *Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal*, 3(3), 79-84.
3. Axmadov, N. R. (2022). Dezadaptatsiya va uning o'smir xulqida na'moyon bo'lishi. *Science and Education*, 3(3), 389-395.



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
Elektron manzil: aspec.uz
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.
Buxoro, 2026. № 4-Son.